

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№10

2025
oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
104 sahifa, oktyabr, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI	12
Quliyev Begimqul Melikovich	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	18
Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI	25
Davletova Nilufar Tulanovna	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	30
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	37
Kadixodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
PECULIARITIES OF THE IRRIGATION WATER DELIVERY PAYMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	41
Muminov Sherzod Kholmiraevich	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	46
Sultanov Dilshod Normamatovich	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	50
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI	55
Vohobov Hikmatillo Ma‘mirjon o‘g‘li	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA’LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI	62
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA’RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI	68
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o‘g‘li	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA’LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O‘RNI	74
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI	80
O. Nurmuradov	
ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA BUXGALTERIYA MA’LUMOTLARINING ICHKI AUDIT JARAYONIDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI	85
Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li, Muxitdinov Shoxijaxon Xudoyor o‘g‘li	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	90
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	



KORPORATIV TUZILMALARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA'MINLASHNING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI ROLI	95
Qurbonov Javlonbek Jurabekovich, Raxmatov Faxriddin Xasanovich	
GLOBAL RIVOJLANISH JARAYONIDA SUG'URTA XIZMATLARINI ISLOH QILISH MASALALARI.....	99
Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o'g'li	



GLOBAL RIVOJLANISH JARAYONIDA SUG'URTA XIZMATLARINI ISLOH QILISH MASALALARI

Xushmuradov Oman

Qarshi davlat texnika universiteti

“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrası dotsenti, i.f.n.

Email: o.xushmuradov@gmail.com

ORCID: 0009-0000-4214-5804

Ismoilov Sherzod Ismoil o'g'li

“SQB Insurance” Sug'urta kompaniyasi AJ Qashqadaryo viloyat filiali direktori

Email: shiismoilov@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada hozirgi global jarayonlarda sug'urta xizmatlarini isloh qilish masalalari va ularning amaliy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida sug'urta tizimidagi islohotlarning samaradorligi hamda mavjud muammolar tahlil qilingan. Sug'urta tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha xulosa va takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: sug'urta, sug'urta mukofoti, faoliyat, kompaniya, ixtiyoriy, shartnoma, hayot sug'urtasi, to'lov, tizim.

Abstract: The article highlights the reform of insurance services in the context of current global processes and their practical dimensions. It provides an analysis of the outcomes of reforms in the insurance system of the Republic of Uzbekistan, as well as the existing challenges. Conclusions and recommendations are presented regarding the further development of the insurance system.

Keywords: insurance, insurance premium, activity, company, voluntary, contract, life insurance, payment, system.

Аннотация: В статье освещены вопросы реформирования страховых услуг в условиях современных глобальных процессов и их практические аспекты. Представлен анализ результатов реформ в страховой системе Республики Узбекистан, а также существующих проблем. Даны выводы и рекомендации по дальнейшему развитию страховой системы.

Ключевые слова: страхование, страховая премия, деятельность, компания, добровольное, договор, страхование жизни, выплата, система.

KIRISH

O'zbekistonning moliyaviy-iqtisodiy hayotini barqaror va tizimli rivojlantirish jarayonida iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishni ta'minlash, hozirgi global rivojlanish sharoitlarini inobatga olgan holda sug'urta xizmatlarini yanada chuqurlashtirish hamda ustuvor yo'nalish va maqsadlarni aniq belgilab olish orqali takomillashtirish kelajakda jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta'minlash yo'lidagi asosiy poydevorlardan biri sifatida xizmat qiladi.

Mamlakatimiz taraqqiyotida jahonning ilg'or andozalari asosida izchil iqtisodiy yuksalish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning nazariy asoslari Prezident Sh.M. Mirziyoyevning fundamental va ilmiy asarlarida keng va batafsil yoritib berilgan. Ushbu asarlarda tadbirkorlarga, kichik va o'rta biznes subyektlariga keng imkoniyatlar yaratish, xorijiy sarmoyalarni jalb etish, huquqiy va jismoniy shaxslar, shuningdek, qishloq xo'jaligi fermerlari, klasterlar va fuqarolarni har tomonlama himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Ayniqsa, sug'urta tizimi imkoniyatlari orqali iqtisodiy subyektlar va aholining manfaatlarini himoya qilish, sug'urta bozorining barcha turdagi xizmatlarini keng miqyosda taklif etish yo'nalishida ilg'or g'oyalar mujassamlashgan bo'lib, ularning amaliy natijalari jamiyat hayotida o'zining real aksini topmoqda.

O'zbekistonda sug'urta faoliyatini keng ko'lamda takomillashtirish borasida muhim huquqiy asos 2002-yil 5-aprelda Oliy Majlis sessiyasida qabul qilingan “Sug'urta faoliyati to'g'risida”gi qonun bilan yaratildi. Ushbu hujjat sug'urtani bozor sharoitida iqtisodiy imkoniyatlarning muhim unsuri sifatida rivojlantirish zarurligini yaqqol ko'rsatdi. Keyinchalik, zamon talablariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-noyabrda yangi tahrirdagi “Sug'urta faoliyati to'g'risida”gi O'RQ-730-son¹ Qonuni qabul qilindi [1].

¹ <https://lex.uz/docs/-5739117>

Respublika mustaqillikka erishguniga qadar mamlakatda faqat bitta davlat sug'urta tashkiloti faoliyat yuritgan bo'lib, tizimning ichki imkoniyatlari rivojlanishiga yetarli sharoit yaratilmagan, sug'urta faoliyati esa majburiy tarzda ikkinchi darajali xizmat turi sifatida amalga oshirilgan. Mustaqillikka erishilgach, sug'urta sohasida raqobat muhiti shakllandi, bozor munosabatlari kengaytirildi, natijada davlat, qo'shma, aksiyadorlik, xususiy va chet el sug'urta kompaniyalarining tashkil topishi hamda ularning faoliyat yuritishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ma'lumki, jahon amaliyotida yirik tavakkallarni sug'urtalash jarayonida bir mamlakat doirasidagi bir nechta sug'urta tashkilotlarini guruhlar, jamiyatlarga yoki uyushmalarga birlashtirish orqali qayta sug'urtalash tizimini shakllantirish tajribasi XIX asrdayoq yo'lga qo'yilgan. Biroq mamlakatimizda bu muhim mexanizmdan hozirgacha yetarlicha foydalanilmayapti [2].

Tadqiqotchilar A.P. Petrov va T.O. Dyukina fikricha, sug'urta moliya tizimining tarkibiy qismi sifatida sug'urtalovchilardan yig'iladigan mukofotlarni jamg'arish va ularni sug'urta hodisalari yuz berganida mulkiy manfaatlari zarar ko'rgan shaxslar o'rtasida qayta taqsimlashni nazarda tutadi. Ularning ta'kidlashicha, sug'urta statistikasi oldidagi eng muhim vazifalardan biri — sug'urta tariflarini imkon qadar aniq belgilashdir. Bunday aniqlikka erishish esa faqat tadqiqot obyektiga oid to'liq va ishonchli statistik ma'lumotlardan foydalanishga asoslangan mukammal statistik metodologiya orqali amalga oshiriladi [3].

Global moliya tarixida sug'urta tizimining evolyutsiyasi hali ham to'liq o'rganilmagan mavzulardan biri hisoblanadi. Tarixiy tadqiqotlarda e'tibor asosan banklar faoliyati va moliya bozorlarining shakllanishiga qaratilgan bo'lib, kapital bozorlarining rivojlanishi, korporativ moliya va xorijiy investitsiyalar jarayonida sug'urtaning tutgan o'rni ko'p hollarda yetarli darajada baholanmagan [4]. Shu bois, sug'urta tizimining rivojlanishini global iqtisodiyot tarixining ajralmas tarkibiy qismi sifatida yanada chuqurroq tahlil etish zarur. Iqtisodchi olim M. Wilkinsning fikricha, sug'urta tarixini iqtisodiy globallashtirishning umumiy tarixiy jarayoni doirasida kengroq o'rganish lozim [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada mavzuga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, statistik axborotnomalar hamda yetakchi olimlarning tadqiqot ishlari tahlil qilinib, olingan natijalar umumlashtirildi. Shu bilan birga, kuzatish, guruhlash, monografik tahlil, taqqoslash, o'rtacha miqdor va tizimli yondashuv kabi ilmiy-uslubiy usullardan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakat iqtisodiyotida chet el investorlarining salmog'i sezilarli darajada kengaydi, O'zbekiston jahon hamjamiyatiga teng sheriklik asosida integratsiyalashdi. Ularning faoliyatini himoya qilish maqsadida sug'urta sohasida ham rivojlangan davlatlar bilan hamkorlik kuchaydi. Natijada yangi sug'urta kompaniyalari tashkil etildi va milliy sug'urta kompaniyalari jahon miqyosidagi kompaniyalar bilan teng sheriklikda hamkorlik qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

O'zbekiston Respublika Prezidenti ta'kidlaganidek, "Iqtisodiyot tarmoqlarini sug'urta xizmatlari bilan qamrab olish muhim" [6]. Darhaqiqat, hozirgi global rivojlanish davrida jamiyatdagi har bir sohaning uzluksiz va barqaror faoliyat yuritishi, ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarining davomiyligini ta'minlash, shuningdek, insoniyatni sodir bo'lish ehtimoli yuqori bo'lgan turli baxtsiz hodisalardan himoya qilishda sug'urta tizimining o'rni beqiyosdir.

Mubolag'asiz aytish mumkinki, jiddiy raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyotining eng muhim unsurlaridan biri sifatida sug'urtaviy himoya ishlab chiqarish, iste'mol va xizmat ko'rsatish subyektlarining doimiy faoliyat yuritishida kafolatli vosita sifatida xizmat qilmoqda.

Shiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urta bozori tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar turli mulkchilik shakllariga ega korxonalar va jismoniy shaxslarni kutilmagan tabiiy yoki tasodifiy hodisalardan himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu xizmatlar ehtimol tutilgan zarar oqibatlarini o'z vaqtida to'liq qoplashni ta'minlab, iqtisodiy va moliyaviy jihatdan barqarorlikni mustahkamlamoqda.

Global jarayonlarning salbiy ta'sirlarini kamaytirish uchun har xil mulkchilik shakllaridagi subyektlar va fuqarolar o'zlariga tegishli mulkdan samarali foydalanish hamda kutilmagan zararlarining oldini olish maqsadida sug'urta xizmatlaridan keng foydalanishga intilmoqdalar. Shu bois, so'nggi yillarda sug'urta turlari sonining ortishi, sug'urta kompaniyalarining ko'payishi hamda ularning xizmatlariga bo'lgan talabning izchil ravishda oshib borayotganligi kuzatilmoqda. Bu jarayonni quyidagi jadval orqali yanada aniqroq ko'rish mumkin (1-jadval).



1-jadval. Respublika sug'urta kompaniyalari bo'yicha sug'urta mukofoti to'g'risida ma'lumot [7] mln. so'm

T/r	Sug'urta kompaniyalari nomlari	Jami sug'urta mukofoti		
		2023-yil	2024-yil	O'zgarish, foizda (%)
Jami, shundan umumiy sug'urta bo'yicha tushum		7 737 236	9 483 746	122,6
1	"Apex insurance" AJ	2 010 933	2 758 066	137,2
2	"O'zbekinvest" EISK AJ	1 233 860	1 270 570	103,0
3	"GROSS sug'urta kompaniyasi" AJ	450 151	623 456	138,5
4	"My insurance" AJ	337 727	430 325	127,4
5	"Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJ	704 384	738 651	104,9
6	"Kapital sug'urta" AJ	300 322	367 221	122,3
7	"Kafil sug'urta" AJ	178 209	289 139	162,2
8	"O'zagrosug'urta" AJ	393 044	418 140	106,4
9	"Alfa invest sug'urta kompaniyasi" AJ	235 494	268 024	113,8
10	"Alskom" AJ	149 736	199 341	133,1
11	"Mosaic insurance group" AJ	79 813	265 080	232,1
12	"Inson" AJ	170 713	252 474	147,9
13	"Temiryo'l sug'urta" AJ	255 488	301 864	118,2
14	"Impex-insurance" AJ	139 741	160 688	115,0
15	"Trust-insurance" AJ	50 832	151 427	197,9
16	"SQB insurance sug'urta kompaniyasi" AJ	135 546	219 271	161,8
17	"Infinity insurance" AJ	34 371	85 923	150,0
18	"NEO insurance corp" AJ	13 184	76 717	481,9
19	"Xalq sug'urta" AJ	40 973	73 011	178,2
20	"Ishonch sug'urta kompaniyasi" AJ	49 002	65 400	133,5
21	QK "Euroasia insurance" AJ	88 930	60 758	68,3
22	"Asia insurance sug'urta kompaniyasi" AJ	75 454	114 945	152,3
23	"Global insurance group" AJ	57 010	49 026	86,0
24	"INGO-UZBEKISTON" AJ	85 426	86 388	101,1
25	"Semurg sug'urta" AJ	69 293	46 656	67,3
26	"ARIA sug'urta tashkiloti" AJ	15 780	32 588	106,5
27	"Imkon sug'urta" AJ	70 223	31 865	45,4
28	"Hamkor sug'urta" AJ	28 709	26 211	91,3
29	"Omad sug'urta" AJ	29 755	20 522	69,0
Hayot sug'urtasi bo'yicha tushum		322 491	286 362	88,8
1	"APEX life insurance" AJ;	63 705	223 232	250,4
2	"ALFA life insurance" AJ;	38 649	26 322	68,1
3	"Kafolat hayot insurance" AJ;	20 262	17 194	83,4
4	"AGROS hayot" AJ;	61 299	10 156	16,6
5	"O'zbekinvest hayot sug'urta kompaniyasi" AJ.	55 954	9 457	16,9

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2024-yil yakuniga kelib respublika miqyosida turli mulkchilik shaklidagi 34 ta sug'urta kompaniyasi faoliyat yuritmoqda. Shundan 29 tasi umumiy sug'urta faoliyati bilan, 5 tasi esa hayot sug'urtasi yo'nalishida faoliyat olib bormoqda.

Hayot sug'urtasi g'arb mamlakatlarining sug'urta bozorida sug'urta mukofotlarini to'plash bo'yicha yetakchi va mustahkam o'rinni egallagan bo'lib, u har bir mehnatga layoqatli fuqaroning hayotiga chuqur kirib borgan. Ammo hayot sug'urtasi bizning mamlakatimizda ham, hamdo'stlik mamlakatlarida bo'lgani kabi, rivojlanishning murakkab bosqichini boshdan kechirmoqda [8].

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 2024-yil yakuni bo'yicha umumiy sug'urta kompaniyalari tomonidan yig'ilgan sug'urta mukofotlari hajmi 9 483 746 mln so'mni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2023-yilda 7 737 236 mln so'mni tashkil etgan bo'lib, o'tgan yilga nisbatan 22,6 foiz o'sish qayd etilgan. Hayot sug'urtasi bo'yicha esa 2024-yilda mukofot hajmi 286 362 mln so'mni, 2023-yilda esa 322 491 mln so'mni tashkil etgan bo'lib, bu 11,2 foizlik pasayish demakdir.

Sug'urta mukofoti tushumlari bo'yicha eng yuqori natijani "Apex Insurance" aksiyadorlik jamiyati qayd etgan — kompaniyaning 2024-yildagi sug'urta mukofoti hajmi 2 758 066 mln so'mni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 37,2 foizga o'sdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar asosida aytish mumkinki, O'zbekiston sug'urta bozorida so'nggi yillarda ijobiy o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda, biroq ixtiyoriy sug'urta segmentida pasayish holatlari mavjud. Bu, bir tomondan, sug'urtalanuvchilar va kompaniyalar o'rtasidagi shartnoma munosabatlarining yetarlicha samarali tashkil etilmaganidan, ikkinchi tomondan esa, aholining sug'urta madaniyati past darajada shakllanganidan dalolat beradi. Shuningdek, targ'ibot-tashviqot ishlarining sustligi, sug'urta to'lovlarining o'z vaqtida amalga oshirilmaligi, rag'batlantirish mexanizmlarining yetarlicha rivojlanmagani va majburiy sug'urta shartnomalari hajmining keskin oshgani ushbu segmentdagi pasayishga bevosita ta'sir ko'rsatgan omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Kelgusida ushbu muammolarni bartaraf etish uchun sug'urta bozorining infratuzilmasini yanada takomillashtirish, innovatsion sug'urta mahsulotlarini joriy etish, aholi o'rtasida moliyaviy savodxonlikni oshirish va davlat tomonidan samarali rag'batlantirish mexanizmlarini yo'lga qo'yish zarur. Bu chora-tadbirlar ixtiyoriy sug'urta shartnomalari salmog'ining oshishiga, sug'urta bozorining barqarorligini mustahkamlashga va moliyaviy tizimdagi o'rinni yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 23.11.2021 yildagi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-730-son.
2. Sharapova Mashhura Azadovna. (2023). O'ZBEKISTONDA SUG'URTA BOZORINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI. Zamonaviy Dunyoda Ilm-fan Va Texnologiya, 2(10), 26–29. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7749694>
3. Петров, А. П., & Дюкина, Т. О. (2012). Статистические показатели в системе анализа страхового рынка. Инноватсии, (6 (164)), 59-62.
4. Cassis, Y., R. S. Grossman, and C. R. Schenk, eds. 2016. The Oxford Handbook of Banking and Financial History. Oxford: Oxford University Press. 10.1093/oxfordhb/9780199658626.001.0001
5. Wilkins, M. 2009. "Multinational Enterprise in Insurance: An Historical Overview." Business History 51 (3): 334–63. <https://doi.org/10.1080/00076790902871636>.
6. <https://www.gazeta.uz/oz/2019/07/10/sugurta/>
7. O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi hisobotlari. 2023-2024-yillar.
8. Abdurahmonov I., Abduraimova M., Abdullayeva N.. "Sug'urta nazariyasi va amaliyoti". Darslik. –T.: "Iqtisod-Moliya", 2020. – 532 b.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100